

OGAHYIJODIDA MUSAMMAT JANRI

Shukurx'ojayeva Roziyaxon

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Turkshunoslik fakulteti Filologiya yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar

Salimova Zebo

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin ijodkori bo'lmish Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning musammat janridagi asarlari tahlil qilinadi. Shuningdek musammatlarda qo'llanilgan poetik tasvirlar, she'riy san'atlar bilan birgalikda Ogahiy ijodi ustida tadqiqot o'tkazgan olimlarning fikrlari ham keltirib o'tiladi. Shunga ko'ra musammat turlari hisoblangan, murabba', muxammas, musaddas, musamman kabi janrlar va ularda foydalanilgan tasvir vositalari o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Ogahiy, musammat, musamman, musaddas, muxammas, tashbeh, timsol, nazm, misra*

Annotation: *This article analyzes the works of the musammat genre of Oghahi, son of Muhammad Rizo Erniyozbek, a brilliant creator of Uzbek classical literature of the 19th century. Also cited are the poetic images used in the musammat, the opinions of scholars who, together with the poetic arts, conducted research on Oghahi's work. Accordingly, musammat types are calculated, verses such as murabba', mukhammas, musaddas, musamman and the means of images used in them are studied.*

Key words: *Ogahi, musammat, musamman, musaddas, muxammas, tashbeh, emblem, lyrics, verse*

XIX asr adabiy muhitining eng zabardast vakillaridan biri Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiydir. O'zbek adabiyoti belanchagini o'zining serqirra ijod namunalari bilan tebratgan shoir Ogahiy nafaqat shoir, balki, buyuk tarixnavis olim, tarjimon, shuningdek, o'z davrining yetuk siyosat arbobi hamdir. Shoir 1809-yilning 17-dekabrida Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida, mirob oilasida tavallud topadi. Ogahiyning buyuk iste'dod egasi ekanligining yana bir sababi, uning otadan erta yetim qolib, amakisi Shermuhammad Munis Xorazmiy qo'lida tarbiya topganligi, deb tushunishimiz mumkin. Negaki, Munis ham o'z davri adabiyotining yorqin siymosi bo'lib, Ogahiyning zabardast shoir sifatida shakllanishida uning xizmati beqiyosdir. Shu o'rinda shoir taxallusiga ham to'xtalib o'tishimiz joiz. Xiva xonligida devonbegi lavozimida ishlagan shoir Komil Xorazmiy Ogahiy shaxsiga shunday ta'rif beradi:

Ulki, ogahlarning ogahidur,
Fazl-u donish sipehrining mahidur.
So'zi ortuq durur guhardin ham
Fazl-u donishda olam ichra olam.

“Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li – Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri bo'lib, Navoiydan keyin eng “ko'p va xo'b” she'r aytgan shoirlardandir.”

Ogahiy XIX asr lirik shoiri sifatida mumtoz adabiyotning 14ta janrida qalam tebratib, o'z muxlislari mehrini qozondi. Mumtoz adabiyotda shoirning g'azal, ruboiy, muxammas, mustazod, musaddas, musammat, musamman, masnaviy, chiston, qit'a, tuyuq, tarjiband, ta'rix she'r va qasida kabi janrdagi asarlarining o'rni beqiyosdir.

“Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muallif mamlakatimizning nufuzli ilmiy fondlari va adabiyot ixlosmandlari bisotidagi mavzuga daxldor qo'lyozma va toshbosma nusxalardan keng foydalanib, ayrimlarini birinchi marta ilmiy iste'molga kiritgan va ishonchli manbalar doirasini muayyan darajada kengaytirgan, natijada musammatlarning mavjud bayoz va turli lirik majmualardagi umumiy hajmini aniqlagan, masalan, muxammaslar soni ayrim ogahiyshunoslar fikricha 84 emas, balki 90 ta ekanligi isbotlangan”.

O'zbek mumtoz she'riyatida g'azaldan keying eng ahamiyatli o'rinni musammat egallaydi. Yuqorida aytilganidek, Ogahiy o'z davrining mohir tarjimoni bo'lib, tarjimalari orasidagi yuksak qiymatga ega bo'lgan “Qobusnoma” asarida ilk bora janr atamasi tilga olingan. Bunda “Qobusnoma” muallifi Kaykovus ibn Iskandar musammatni shoirlarning zarur usullari doirasida yoritadi.

Ogahiy nazmiy ijodining eng sermahsul janrlaridan biri ham musammatdir. Ushbu janr shoir merosining atroflicha o'rganish hamda tadqiq etish mumkin bo'lgan ahamiyatli yo'nalishidir. Chunki musammatlarida Ogahiyning o'ziga xos she'riyati aks etgan bo'lib, chuqur o'rganishni talab etadi. “Taviz ul-oshiqin” asaridagi musammatlar ham Ogahiy dunyosini, uning hayotga bo'lgan tushunchalarini teran anglashga yordam beradi.

“Muallifning Ogahiy o'zi tuzgan va boshqa majmualardagi she'rlari qatori musammatlarni “Taviz ul-oshiqin” devoniga kiritishga jiddiy yondashgani, ba'zilarni qayta tahrir qilib, mukammallashtirgani xususidagi mulohazalari ham diqqatga loyiqdir. Bu hol Ogahiyning o'z qo'li bilan tuzilgan 186 varaqdan iborat “Bayozi mutafarriqa” nomli majmuasi bilan devonning qiyosiy tahlilida yorqin aks etadi. Jumladan, Ogahiyning bayozdagi ayrim muxammaslarni, xususan Amiriy, Navoiy g'azallariga bog'langan taxmislarni sayqallab, ma'no teranligini oshirishga erishganiga alohida urg'u berilishi bu fikrni tasdiqlaydi”.

Ogahiy musammatlari shoir nazmiy merosining tarkibiy qismi bo'lib, ular turkiy va fors tillarida bitilgan murabba', muxammas, musaddas, musamman kabi she'riy shakllardan iborat hamda ulardan nashrga chiqqanlarining umumiy hajmi 3525 misrani tashkil etadi.

“Taviz ul-oshiqin”ning yangi topilgan qo’lyozma nusxasida ham musammatlar bo’lib, unda jami 12 muxammas, 3 musaddas, 2 musamman mavjud.

Istab karami tarabgahingni,
O’pdihama xalq dargahingni,
Lekin fatodai rahingni,
Ya’niki, g’arib Ogahingni,
Shoho karamingdan etma navmid,
In’om ila xurram ayla jovid.

Ushbu musaddas Alloh Taologa hamd-u sano keltirish orqali Yaratgan inoyatidan umidvor bir musulmon kishining dilidagi hislari o’z aksini topgan.

Shu bilan birgalikda, Ogahiy musammatlarida tabiat tasviri ham nihoyatda chiroyli ifodalanadi. Shoirning quyida keltirilgan muxammasida ham tabiatning eng nafis hadyasi bo’lmish gul obrazi tasvirlanadi:

Navbahor ayyomi to bog’ ichra xandon bo’ldi gul,
Rangu bo’ydin ziynat afzoyi guliston bo’ldi gul,
Barcha lutf-u husn ila yaktoyi davron bo’ldi gul,
Orazingni bog’ aro chun ko’rdo hayron bo’ldi gul
Bargsiz qoldi nedinkim, bas parishon bo’ldi gul.

Ogahiy murabba’larida ustozlar an’anasini davom ettirgan holda 23 band 92 misradan iborat ikki murabba’ yaratgan. Navoiy, Mashrab va Yassaviy yozgan murabba’lari kabi ikki murabba’ ham mustaqil musammat hisoblanib, Fuzuliy she’riyatiga tatabbu’ tarzida yaratilgan.

Jamoling shavqida yoqdi falakni o’tlug’ afg’onim
Bori yer yuzini to’fonga berdi chashmi giryonim
Eshit dodimni emdi darding o’ldi qosidi jonim
Nigorim, mehribonim mukrimat taxtida Sultonim!

Mubolag’a tasviriga ega bo’lgan bu bandda shoir Allohga murojaat qilib, uning marhamati orzusida yashagani, chashmi giryon holda, tani larzon, tili tutilib, dili g’amnok mahbubaning unga rahm ko’zlari bilan boqishidan umidvorligini ta’kidlaydi.

Muruvvat aylakim, aftodan hoki rahingdurman,
G’ulomu, ostonu jabhasoi dargahingdurman
Qarilig’ dardidan pajmurda bo’lg’on Ogahingdurman
Nigorim, mehribonim, mukrimat taxtida Sultonim!

Mazkur murabba’ aruzning hazaji musammani solim vaznida yozilgan bo’lib, 15 band 60 misradan iboratdir. Bu murabba’da ham oshiqning Yaratgandan marhamat tilab

yolvorishi ifodalangan. Shoir tasavvufiy qarashlarga yo'g'rilgan poetik timsollar va she'riy san'atlardan foydalangan.

Hur yanglig' qomati zebou husni bebadil,
Bir labi kavsar malohatda, biridir salsabil,
Majlisim fayzi jamolidin bixisht oso jamil,
Soqiyo jomi tarab kelturki ishrat chog'idur.

Yuqoridagi bandda ma'shuqaning qomatini hurlarga o'xshatish orqali tashbeh san'ati namunasi yuzaga kelgan. May obrazi esa shodlik ramzi sifatida talqin qilingan.

Ogahiy taxmislaridagi mushtarak san'atlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mushtarak san'atlar she'riy san'atning ham ma'no, ham lafzga daxldor turi bo'lib, bunda so'z, jumla, ibora shakily va ma'noviy mushtaraklik kasb etadi. Ammo abribir ikkisidan biri yetakchilik qiladi. Bu to'g'rida Xusayniy: "So'zda alarning yig'indisi husnga bosh bo'lur, garchi husndorlik bu ikkovining birida ikkinchisiga nisbatan ko'prak bo'lsa ham", - deb yozadi va lafziyu ma'naviy san'atining 22 turiga izoh beradi".¹⁴

Mango dushmanlig' izhor aylasa gar xosidi jofi,
Oning haqida manda do'stlig' atvoridur vofi,
Ishongil sidq birla bu arzimning yo'qturur lofi,
Muhabbat kinadin ko'nglumni ul nav' aylamish sofi,
Ki dushmanlar yuziga do'stlig' bobbin ila olmon.

Mazkur misralar Munis g'azaliga bitilgan taxmsi bandi bo'lib, undagi tazod san'ati Ogahiy shaxsiyatining, ya'ni uning nechog'li bag'rikeng, sabr-matonatli inson bo'lganligini anglatish uchun yordam beradi.

Musammat she'riy janri orqali Ogahiy nafaqat sharq mumtoz adabiyoting boy merosini, shu bilan birgalikda falsafiy, axloqiy va ijtimoiy taraqqiyotni ham yuksak darajaga olib chiqqan shoirdir.

Ogahiy musammatlari mazmunan boy, shaklan barkamol ijod namunalari bo'lib ular shoir nazmiy merosining uzviy qismi sifatida atroflicha ilmiy tadqiq qilishga molikdir. Negaki Ogahiy musammatlari chin ma'nodagi tarbiya qomusi, inson turmush tarzining ko'zguvidir. Adabiyotshunos N.Jumayev aytganidek: "U ataylab badiiy san'at qo'llamaydi, uning qalamiga tushgan so'z san'at bo'lib muxrlanadi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ogahiy. Taviz ul-oshiqin. – Toshkent: FAN. 1960.

¹⁴ Xusayniy Atoulllo Mahmud. Badoe us-sanoe. Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.-B-398

2. G. Xalliyeva. Ogahiy musammatlari. Monografiya. Toshkent: “Mumtoz so’z”. 2019
3. A. Fayzullayev. Muhammad Rizo Ogahiy-ulug’ shoir va mutafakkir. T:TDSHU. Toshkent – 2022. B-34
4. Xusayniy Atoullo Mahmud. Badoe us-sanoe. Toshkent: Adabiyot va san’at. 1981.